



## TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISH

Fayzullayeva Xosiyat Samariddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi  
3-bosqich Email:fayzullayevaxosiyat9@gmail.com Tel.raqami:+998945161722

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, shu bilan birga metodikasini yanada rivojlantirish to'g'risida so'z boradi. Ta'lim jarayonida rusiyzabon o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik mahorat masalalari ochib berilgan,

**Kalit so'zlar:** metodika, pedagogik mahorat, metod, samaradorlik, kompetensiya, qobiliyat, ta'lim muammo, kasb.

**Аннотация:** В данной статье речь пойдет о дальнейшем развитии методики повышения педагогического мастерства учителей. В процессе обучения раскрываются вопросы педагогического мастерства в работе с русскоязычными учащимися

**Ключевой слова:** методика, педагогические навыки, метод, эффективность, компетентность, способности, образование, проблема, профессия.

Hozirgi kunda amalyotimiz davomida biz shuni guvohi bo'lyapmizki, rusiyzabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'qitish biroz achinarli holatda. O'qituvchilarning darsga bo'lgan e'tibori pasayib ketgan. Holbuki, o'qituvchilar o'quvchiga bilim berishga emas, balki oylik uchun kelishayotgandek. Darsdagi eng muhim narsa bilim emas, bolaning jim o'tirishi bo'lib qolgan. Bu darajaga kelib qolishiga sabab o'quvchilar deya ayta olmaymiz, chunki o'quvchilar qiziqarli narsalarga intiladi. Darsni qiziqarli qilib har xil metodlar orqali o'tish bu o'qituvchining vazifasi deb bilaman. O'qituvchi darsni har xil metodlar, ko'rgazmali qurollar orqali o'tmas ekan, bolani bu fanga qiziqitira olmaydi. Shu bois, bolaning bu fanga bo'lgan qiziqishi so'nadi va o'rganishni xohlamaydi. Bugun internet yaxshi rivojlangan, bolalar ham XXI asr bolalari, shu bois o'qituvchilar o'zlarining ustida ko'proq ishlashlari lozim. 45 daqiqalik darsni faqatgina yozdirish orqali emas, balki esda qolarli metodlar orqali o'tilishi yaxshiroq deb o'ylayman.

Respublikamizda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan UO'T ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident Qarori:

“2024-yil 1-sentabrga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga talabalarda mustaqil ta'lim olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikalar joriy qilinsin”.

Tursunov D.B. ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi Jizzax Politexnika instituti. «Ta'lim jarayonida pedagogik mahorat» nomli maqola yozgan. Pedagogik mahoratni shakllantirish pedagogik yo'nalishdagi Oliy ta'lim muassasalari o'quv ilmiy faoliyatidagi



asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglarni o'z kasbiy mahoratini talabalik davridan oshirib borish kerak. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim uchun eng muhim masalalardan biri talabalarda pedagogik kompetensiyani shakllantirishdir.[1;4-b]

Kompetenlik bu - inglizcha so'z bo'lib, «competence» -«qobiliyat» degan ma'noni bildiradi. Pedagogik qobiliyat faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni bildiradi. Bugungi kunda pedagogik mahoratga ega bo'lish talabi yanada kuchaygan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning muayyan darajada pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarurligini taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonida pedagog xodimlar o'z ustida ko'proq ishlashlari, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni darsda tadbiq eta olishlari zarur.

Н.Б.Дремова professor o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish universitet rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi deya ta'kidlaydi. [2;118-b]. Chunki universitetda o'quv uslubiy ishlarni tashkil etish o'qituvchilarning kasbiy bilim darajasiga bog'liq. Zamonaviy universitet o'quvchisi an'anaviy va innovatsiyon o'qitish usullarini puxta egallashi zarur.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'zbek tilini 2-til sifatida o'rgatishda pedagoglarning mahorati qoniqarli ahvoldami?(3-4-sinflar)

Bugungi kunda rusiyzabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'qitishda pedagoglar bir necha muammolarga duch kelmoqdalar. Pedagoglar dars jarayonlarini faqat yozdirish, bolani tinchlantirish bilan o'tkazmoqda. O'zbek tilini ham chet tillari kabi o'tish vaqti kelmadimikan? Pedagoglarning aytishi bo'yicha yangi darslikda dars o'tish qiyin, sabab: "Kitobda hech narsa yo'q"- deya aytishadi. Mening fikrimcha bolaga nimanidir o'rgatmoqchi bo'lgan odamga darslik bahona bo'la olmaydi. Pedagog mavzuga doir qiziqarli ma'lumot topib, bolani darsga qiziqitirib dars o'tishi kerak. Bugun ta'lim jarayonida interaktiv metodlar faol qo'llanilmoqda. Bu dars samaradorligini oshirishda yordam beradi.

Misol qilib "baliq ovi"metodi asosida darsni tashkil etish mumkin. Doskaning bir tomoniga dengiz rasmi, ikkinchi tomoniga akvarium rasmi tushiriladi. Dengizda rangli qog'ozlardan yasalgan baliq bo'ladi. O'quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib, uni orqa qismidagi savolga javob beradi. Javob to'g'ri bo'lsa baliqni akvariumga, noto'g'ri bo'lsa dengizga qo'yib yuboradi. Darsni shu shaklda o'tsa, o'zbek tili faniga qiziqish yanada oshadi. Natijada, bolalar berilgan topshiriqlarni bajarishga intiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonida pedagog mahoratini oshirish yuzasidan bir qator tadqiqotlar qilingan. Biz faqat ayrim mulohzalarni bayon etdik. Bugungi ta'lim jarayoni xalqaro standartlarga mos, pedagoglar esa yuqori malakali bo'lishlarini talab etadi.

Tavsiya sifatida shuni aytmoqchimizki, umumiy o'rta ta'lim pedagoglari o'z ustida tinimsiz ishlashlari, xorijiy tajribalarni o'zlashtirishlari, xorij davlatlariga tajriba almashishni yo'lga qo'yishlari lozim.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1.”Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son Qarorida ta’lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlash oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qarori

3.Tursunov D.B ”Ta’lim jarayonlarida pedagogik mahorat”.№(100)2022

4,Дремова Н.Б Совершенствование педагогического мастерства преподавателя 2015-yil 1-son.

Internet manbalari:

1.<https://look.uz/pages/4802.www.lex.uz>